

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI**

*Musurmonova Mohichehra G‘ulomjon qizi*

*Samarqand viloyati Samarqand*

*shahar 24-maktab psixologi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur mavzuda kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari, ularning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari hamda ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘ziga xos jihatlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** kichik maktab yoshi, bola psixologiyasi, tafakkur, diqqat, xotira, motivatsiya, rivojlanish

**KIRISH**

Kichik maktab yoshi (odatda 6–10 yosh) bola hayotida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bola maktab muhitiga kirib keladi, yangi ijtimoiy rol — o‘quvchi rolini egallaydi va uning psixik rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Shu sababli ushbu davrni chuqur o‘rganish pedagogika va psixologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

**1. Aqliy rivojlanish xususiyatlari**

Kichik maktab yoshida bolalarda tafakkur rivojlanishi sezilarli darajada tezlashadi. Ular konkret fikrlashdan asta-sekin mantiqiy fikrlashga o‘tadi. Tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar shakllana boshlaydi.

Bu davrda diqqat hali to‘liq barqaror emas, lekin o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, u tez rivojlanadi. Xotira esa asosan mexanikdan ma’noli xotiraga o‘tadi.

**2. Emotsional rivojlanish**

Kichik maktab yoshidagi bolalar hissiyotlarga boy bo‘ladi. Ular tez quvonadi, tez xafa bo‘ladi va o‘z his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etadi. O‘qituvchi va ota-onaning munosabati bolaning emotsional holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Rag‘batlantirish va ijobiy baho berish bolada o‘ziga ishonchni oshiradi, aksincha, doimiy tanqid uning psixologik holatini salbiylashtiradi.

**3. Ijtimoiy rivojlanish**

Bu davrda bola jamoaga moslashishni o‘rganadi. Sinf jamoasi uning ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordam kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi.

Bola kattalarning bahosiga juda sezgir bo‘ladi va o‘zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

**4. Motivatsiya va o‘qishga munosabat**

Kichik maktab yoshida o‘qishga bo‘lgan qiziqish dastlab tashqi motivlar (baholar, rag‘bat) orqali shakllanadi. Vaqt o‘tishi bilan ichki motivatsiya — bilim olishga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi.

O‘qituvchining darsni qiziqarli tashkil etishi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

#### 5. Tarbiya va psixologik yondashuv

Kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashda individual yondashuv muhimdir. Har bir bolaning qobiliyati, temperamenti va qiziqishi inobatga olinishi kerak.

Ijobiy muhit yaratish, qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bolaning psixologik rivojlanishini jadallashtiradi.

Bolalik yoshida tafakkurning rivojlanishi bir qancha ketma-ket bosqichlardan o‘tadi. Bu bosqichlar bir-biri bilan mahkam bog‘langan bo‘ladi va shuning uchun ularni qat‘iy chegaralab qo‘yish mumkin emas. Ilk bolalikda yaqqol harakatli tafakkur ustun turadi. Bu vaqtda bola hali gapirishni bilmasa ham, olamni asosan idrok qilish va harakat yordamida bilib oladi (ilk bolalik davri).

Rivojlanishning keyingi bosqichida yaqqol obrazli va nutqiy tafakkur va hukmronlik (ustunlik) qila boshlaydi. Bu vaqtda predmetlar yoki ularning obrazlari so‘z bilan bog‘lanadi. Fikrlash faoliyatining ana shu turi maktabgacha bo‘lgan yosh uchun xarakterlidir. Bu vaqtda bola obrazlar bilan fikrlaydi, u o‘zlashtirib olgan so‘z esa uning umumlashmalar qilish uchun yordam beradi. Bolada muhokama yuritish qobiliyati (uning o‘z tajribasi doirasida) paydo bo‘ladi.

Maktab ta'limining boshlanishi bilan bolalarda tushunchali tafakkur maktabga qadar bo‘lganidan tezroq rivojlana boshlaydi. Bu tafakkur jarayonida bola tushunchalar yordamida ish ko‘radi. Avvaliga tushunchali tafakkur konkret predmetlar va hodisalar bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi (konkret tushunchali tafakkur ustun turadi), lekin sekin-asta kichik yoshdagi o‘quvchilarda konkret narsadan abstraktlashish (chetga chiqish), umumlashmalar qilish va ma'lum darajada mavhum xulosalar chiqarish (abstrakt tushunchali tafakkur) ko‘nikmasi vujudga keladi.

Fikrlash jarayonlarining ana shu rivojlanishida o‘qish juda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. U bolalarning tasavvur doirasini va bilimlarini kengaytiradi. Yangi tushunchalarni o‘zlashtirish ro‘y beradi. Ular bir sistemaga keltiriladi. Ko‘pincha aqliy xulosalar, shu jumladan shartli giprotetik xulosalar qo‘llaniladi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishini yirik sovet psixologi L. S. Vigotskiy tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan. Shuning uchun ajnabiy psixologlarning (birinchi navbatda J. Piajening) egotsentrik nutq kontseptsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod orqali o‘rganishni tavsiya qiladi. A. S. Vigotskiy psixologiya faniga inson kamolotining “Eng yaqin taraqqiyot zonasi” va “Aktual faoliyat zonasi” deb nomlangan tushunchalarni olib kirdi. Uning birinchi o‘qituvchining bevosita rahbarligi ostida amalga oshirilsa,

ikkinchi o'quvchining mustaqil faoliyatida namoyon bo'ladi. Bola maktabga kelgan kundan boshlab, ta'lim jarayonida unda ilmiy tushunchalar va tasavvurlar miqdori soat sayin orta boradi, u asta-sekin o'zlashtirayotgan tushuncha va tasavvurlarning asl ma'nosi, mohiyatiga tushuna boshlaydi.

Umuman bolaning fikr yuritish doirasi, ko'lami va mazmuni kengaya boradi. Ammo maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan bolaning bu narsalardan talabga javob beradigan darajada xabari bo'lmaydi. Ular bu narsalarning barchasiga o'qish jarayonida bevosita o'qituvchi rahbarligi ostida erisha boshlaydilar.

Fikr yuritish operatsiyalarining psixologiya asoslari va mexanizmlarini bilmasdan turib, o'qituvchi bularni o'quvchilar ongiga sig'dira olishi mumkin emas. Sistemali maktab ta'limining boshlanishi bilan bilimlarni egallash bola faoliyatining alohida bir turiga aylanadi. Uning oldida maxsus vazifa – ilmiy tasavvurlar va tushunchalarni egallash tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini egallash vazifasi turadi. Bu hol bolalar tafakkurining tez rivojlanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faoliyati shu bilan farq qiladiki, ko'pincha ular predmetlar va hodisalar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni aniqlash uchungina emas balki tevarak-atrofdagi voqelikda mavjud bo'lgan ob'yektlarning o'ziga qiziqishlari tufayli bilim oladilar.

Inson bolasining ham jismoniy, ham psixologik jihatdan rivojlanib borishi, turmush tajribasining bo'lishi, nutq boyligining ortishi tufayli, kishilar bilan muloqotga kirishishi natijasida asta-sekin uning tafakkuri o'sa boradi. Tafakkur bolada uning umumiy taraqqiyoti bilan bilish faoliyatining, shuningdek, ijtimoiy muhitning bevosita ta'siri ostidagina vujudga keladi. Real borliqning sezgi organlarida idrok va tasavvurda aks etishi, xotirada mustahkamlanishi, bilishga nisbatan ehtiyojning tug'ilishi tafakkurni vujudga keltiradi. Bola tevarak atrofdagi voqelikning belgi, alomati va xususiyatlarini, ularning xossalarini, qonuniyatlarini va o'zaro bog'lanishlarini bilish faoliyatida va ta'lim progressida tushuna boradi, fikr yuritish faoliyatida esa ham miqdor, ham sifat o'zgarishi yuzaga keladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tafakkurida konkret obrazlarga suyanib mulohaza yuritish, ya'ni konkret tafakkur obstrakt tafakkurdan ma'lum darajada ustun turadi. Lekin keyingi yilda D. B. Elkonin, V. V. Davidovlar olib borgan tadqiqotlar mazkur mulohazalarga katta e'tiroz tug'dirmoqda. Shuning uchun dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni tafakkur operatsiyalari va formalariga o'rgata borsa, ularning tafakkuri tezroq rivojlanish pog'onasiga ko'tariladi. Bundan tashqari, ularning bilishga qiziqishi, bilim fondi ortadi, bilimlar sistemalashib boradi, ayniqsa, aqliy faoliyati, mustaqilligi rivojlanadi va takomillashadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xotirasining eng muhim xususiyatlaridan biri - so'z mantiq xotirasi va ma'nosiga tushunib eslab qolish salmog'ining ortishidir.

O‘quvchi o‘z xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash jarayonlarini faoliyatning maqsadiga muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega, bo‘ladi.

Yuqorida aytilganidek, birinchi signal tuzilmasi ikkinchi signal tuzilmasidan birmuncha ustunligi tufayli o‘quvchilarda mantiqiy xotiradan ko‘ra ko‘rsatmali-harakatli xotira muhimroq rol o‘ynaydi. Shuning uchun ular nazariy qonun va qoidalardan, mavhum tushunchalardan ko‘ra yaqqol ma’lumotlar, axborotlar, voqea va hodisalarni, obrazlar va narsalarni tezroq hamda mustahkamroq eslab qoladilar va uzoq muddat esda saqlaydilar. Birinchi va ikkinchi sinf o‘quvchilari ta’limiy materiallarning ichki bog‘lanishlariga ahamiyat bermay, ma’nosiga tushunmay quruq eslab qoladilar. O‘rganilayotgan materiallarni mantiqiy tahlil qilmay, yodaki o‘zlashtiradilar. Buning sabablari:

1) ularning mexanik xotirasi boshqa xotira turlariga qaraganda durustroq rivojlangani ma’lumotlarni aynan, o‘zgarishsiz eslab qolish imkonini yaratadi;

2) o‘quvchilar o‘kituvchi qo‘ygan vazifani anglab etmaydilar, natijada uning tug‘ri tushuntirib ber, degan talabini so‘zma-so‘z takrorlash deb biladilar;

3) ularning nutq boyligi etishmasligi (ilmiy atamalar va til qonuniyatlarini bilmasligi) materialni ijodiy to‘ldirish, unga qo‘shimcha qilish imkoniyati yo‘qligi uni so‘zma-so‘z qaytarishni osonlashtiradi;

4) o‘quvchilar matnni to‘g‘ri usullar yordamida eslab qolishni bilmaydilar. A.A.Smirnov eslab qolishning to‘g‘ri usuli sifatida matndagi ma’nodosh so‘zlarni guruhlariga ajratish, tayanch nuqtani topish, so‘zlab berish uchun reja tuzish va o‘tilgan mavzularni idrok etgan holda yangi mavzuyi takrorlashni tavsiya qiladi. Ta’lim jarayonida o‘kuv materiallarining ma’nosini, mohiyatini, turli mulohazalarni, dalillarni, ilmiy asoslarni eslab qolish va esga tushirish orqali o‘quvchilarda mantiqiy xotira takomillashadi.

Ularni A.A.Smirnov tavsiya qilgan usul va vositalar bilan qurollantirish o‘qituvchining vazifasi hisoblanadi. Aqliy mehnatda mustaqillikni vujudga keltirmay bilishga intilish qobiliyatini o‘stirish mumkin emas. Shuning uchun bolalarga izohli o‘qish, masalaning shartini sharhlash, muammoli vaziyatni yaratish va hal qilishni o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Ixtiyoriy eslab qolish va ixtiyoriy esga tushirishning ma’suldorligi ko‘p jihatdan o‘quvchilar aqliy faolligining darajasiga bog‘liq. Aqliy faoliyat darajasi ularning eslab qolishni tashkil qilish va boshqarish usullarini egallashiga uzviy aloqadordir. Mnemik (xotira) usullarga ta’rif yoki qoidani so‘zma-so‘z eslab qolish, o‘z so‘zi bilan aytib bersa bo‘ladigan materialning mohiyatini eslab kolish, birlamchi va ikkilamchi qismlarga ajratish, raqamlarni bir joyga to‘plash, eng zarur tushunchalarga alohida e’tibor berish kiradi. Eslab qolish, esda saqlash, esga tushirishning samaradorligi maqsadni anglash va unga intilish negizida vujudga keladi.

Xotiraning samaradorligi o‘qish motivlariga bevosita bog‘liqdir. T.N.Balarich o‘z tajribasida bir guruh o‘quvchilarga o‘quv matnini bundan keyin sira kerak bo‘lmasligini, ikkinchi guruhga undan tez kunda foydalanilishini aytib o‘zlashtirishdi tavsiya qilgan. Olingan natijalarga ko‘ra birinchi guruhda faoliyatda qo‘llash ustanovkam yuqori samara bergan, matn tez eslab qolingan va uzoq vaqt esda saqlangan. L.V.Zankovning tadqiqotida ham eslab qolishga intilishning roli o‘rganilgan, uzoq vaqt eslab qolishga intilish ham yaxshi samara berishi isbotlangan. Shunga asosan psixologiya faniga uzoq vaqt eslab qolish, hamma vaqt esda saqlash iboralari kiritilgan.

Umuman kattalarning, xususan o‘qituvchilarning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda materiallarni eslab qolish uchun muayyan intilishni, tarkib toptirish, ularga eslab qolishyaing usullarini, fikr yuritish operatsiyalarini (taqqoslash, tahlil qilishni) o‘rgatishdan iboratdir.

Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta‘lim jarayonida o‘zini o‘zi nazorat qilish, materialni takrorlashda tekshirish, esga tushirish, mashq qilishdan unumli foydalanish zarur. Agar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga eslab qolish va eslash usular o‘rgatilmasa, ular materialni bevosita takrorlashda, uzoq vaqt to‘xtalib qoladilar. Shuning uchun ham eslash qiyin mehnat (K. D. Ushinskiy) hisoblanadi. Lekin o‘quvchilar materialni eslashni xush ko‘rmaydilar. Materialni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va eslash usullarini o‘rgatish mantiqiy xotira o‘sishining garovidir.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchining xayoli o‘z o‘quv faoliyatining ta‘siri, talabi, imkoniyat va shart-sharoitlari orqali tarkib topadi. Bolaning xayoli tevarak-atrof taassurotlari, dunyo ajoyibotlari, ko‘rsatmalili, tasviriy sanhat asarlarini yetarli darajada aks ettirish bilan vujudga keladi. Obrazlar, suratlar, chizmalar, shartli belgilar, noma‘lum narsalarning alomatlari, tabiat manzaralari, fazoviy tasavvurlar jamlanib o‘quvchilarning xayoli paydo bo‘ladi. Tanish obraz yaratish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan tiklovchi xayol bolaning ruhiy dunyosida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta‘lim jarayonida bolalarning yorqin, aniq, tiniq, yaqqol tasavvur obrazlari xayol yordamida muayyan voqelikka aylanadi.

O‘rganilayotgan fan materiallari eshitilgan va o‘qilgan badiiy asarlardagi obrazlar tartibga solinadi, yaxlit bir butunlikdan iborat umumlashgan obrazlar tizimi yaratiladi. O‘qish davomida turmush tajribasida to‘plangan taassurotlarni qayta tiklash, yangi belgilar bilan boyitish, ularni o‘zaro birlashgan holatga keltirish yangi obrazlar, ijodiy izlanishning eng muhim omili-ijodiy xayolni takomillashtiradi. Ijodiy xayolning eng muhim xususiyatlaridan biri yaratilgan tasvirlarning yaqqolliqi, mantiqiy qonunlarga uzviy bog‘liqligi, g‘ayritabiiy, ajoyib-g‘aroyib istaklardan uzoqligidir. Shuning uchun o‘quvchi xayolida turmushga, voqelikka zid kelmaydigan tasvirlar, timsollar ko‘lami tobora kengayadi. Bu esa o‘quvchida hodisalarni tanqidiy baholash

ko'nikmasi paydo bo'lganini bildiradi. Natijada uning xayoli taassurot qurshovidan bo'shaydi, yaratilgan obrazlarni tabiat va jamiyatning obhektiv qonunlariga suyangan holda baholash ko'nikmasi yanada takomillashadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xayolining xususiyatlaridan yana biri hayotiy voqelik bilan fantaziyaning o'zaro aralashib ketishidir. Ma'lumki, o'quvchi yaqqol voqelik yoki hodisani o'zi yaratgan qo'shimcha obrazlar, tafsilotlar bilan boyitib boshqalarning diqqat-ehtiboriga uzatadi. Bu uning yolg'onchiligi emas, balki xayolining xususiyatidir. Ayrim bolalar haqiqat bilan fantaziyaning aralash holatiga chindan ham ishonadilar, bunda soddadillik bilan ishonuvchanlik uzviy bog'lanib ketgan bo'ladi. Ba'zi hollarda mazkur yoshdagi o'quvchi boshqalarning diqqatini o'z axborotiga qo'shish maqsadida ham fantaziya ununli foydalanadi. Bunday holat birinchidan, bola o'zining sinfdagi o'rtoqlari orasida yoki oilada allaqanday kamsitilganda, ikkinchidan, o'z tengqurlari yoki kattalar ko'z o'ngida o'zini uddaburon qilib ko'rsatish istagi tug'ilganda, uchinchidan, haqiqiy ijodiy obrazlar yaratish jarayonida namoyon bo'lishi mumkin. Biroq, o'quvchilar xayolparastlikka, fantaziya berilishining oldini olishga pedagoglar, umuman kattalar doimo ahamiyat berishlari kerak.

### XULOSA

Kichik maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu davrda bolaning shaxs sifatida shakllanishi boshlanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim va tarbiya jarayoni uning aqliy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois ota-onalar va o'qituvchilar bolalarning yosh xususiyatlarini chuqur bilgan holda ularga yondashishi zarur. Bu esa barkamol va mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Toshboltayeva Nodira Ibrohimjonovna //The importance of thinking in the complex process of individual activity// International conference on Studies in Humanities, Education and Sciences. January 10 th,2022. 69-70 pages.
2. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA TAFAKKUR HAQIDAGI NAZARIY QARASHLAR// IJODKOR O'QITUVCHI JURNALI. 5 MAY / 2023 YIL / 29 – SON. 232-238 betlar.
3. Ahmadjonov Nurmuhammad Nabijon o'g'li //KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR OPERATSIYALARI RIVOJLANISHINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANILISHI// 5 MAY / 2023 YIL. 29 – SON. 239-246 betlar.

4. Ahmadjonov Nurmuhammad //DEVELOP STUDENTS' THINKING SKILLS IN THE LEARNING PROCESSBASICS// ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 1, Jan, 2021. 15-21 pages.
5. Ahmadjonov Nurmuhammad, Sobirjonova Masturabonu //8-9 YOSHDAGI BOLALARDA GEOMETRIK MATERIALLARNI O'RGANISH ORQALI AQLIY OPERATSIYALARNI SHAKLLANTIRISH// 3rd International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from Kuala Lumpur, Malaysia May 31. Vol. 25 No. 1 (2021). 182188.
6. Ziyonet